

HARBIY XIZMATCHILARNI BARQAROR AXLOQIY-RUHIY HOLATI
JANGOVAR TAYYORGARLIKNING OMILI

Djabbarov Anvar Axrorovich

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 23.06.2026

Revised: 24.06.2026

Accepted: 25.06.2026

KALIT SO'ZLAR:

globallashuv, harbiy-siyosiy vaziyat, milliy ruh, vatanparvarlik, milliy g'urur, jangovar ruh, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik, shakl, usul va vositalar.

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida hamda O'R QK tashkil etilganligining 30 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, Qurolli Kuchlarning jangovar qudratini oshirishda vatanparvarlik, milliy g'urur, jangovar ruh va axloqiy-ruhiy tayyorgarlik kabi yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarning ahamiyati, asosiy shakl va uslublari yoritilgan..

Bugungi globallashuv davrida dunyo va Markaziy Osiyo mintaqasidagi keskin o'zgaruvchan harbiy-siyosiy vaziyat, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka xavf-xatar va tahdidlar, jumladan, qo'shni davlatlardagi qurolli mojarolarni ortishi, xalqaro terrorizm va ekstremizmni faollashganligi, muxolifat kuchlarini davlat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni ifoda etishning keskin va agressiv usullarini qo'llashning ortayotganligi, mojaro va ziddiyatlarni kuch ishlatib hal etishga bo'lgan yondashuvlarni ustunlik qilayotganligi bilan xarakterlanmoqda.

Bunday sharoitlarda qo'shinlarni zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnikalar bilan ta'minlash bilan bir qatorda, vatanparvar, sadoqatli, faol fuqarolik hayotiy pozitsiyasiga ega, xalq manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan kam ko'rmaydigan, yot g'oyalarga immuniteti mustahkam, axloqiy-ruhiy jihatdan barqaror shaxsni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda [1].

Shu ma'noda 2022-yilning 13-yanvar kuni Mudofaani boshqarish milliy markazida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida bo'lib o'tgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida Davlatimiz rahbari kelgusida harbiy sohada milliy xavfsizligimizni kuchaytirishga doir ishlarni yanada izchil davom ettirish borasida so'z yuritar ekanlar, islohotlarning boshqa

muhim yo‘nalishlari bilan bir qatorda, jahon axborot makonida keskin kurash ketayotgan hozirgi vaziyatda axborot xavfsizligini ta‘minlash, yoshlarni salbiy mafkuraviy ta‘sirlardan himoya qilish, harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi va jangovar ruhini mustahkamlashga qaratilgan vazifalarga alohida to‘xtalib o‘tdilar.

Albatta bu bejizga emas, Rossiya va Ukraina davlatlari o‘rtasidagi harbiy-siyosiy ziddiyat, Afg‘onistondagi nobarqarorlik, Tog‘li Qorabog‘ hududida Ozarbayjon va Armaniston o‘rtasida bo‘lib o‘tgan jangovar harakatlar, Qozog‘istonda yuz bergan ijtimoiy tanglik kelajagimizga hushyorroq nazar tashlashimizga, tinch va osoyishta hayotimizni qadrlash, uni himoya qilish, turli ko‘rinishdagi tahdid va xatarlarga nisbatan sergak bo‘lishni taqozo etmoqda.

Bu voqea va hodisalar bizni mamlakatimizdagi tinchlik va osoyishtalikni qadrlash, Qurolli Kuchlarning jangovar qudratini yanada oshirishni taqozo etadi.

Harbiy xizmatchilar va bo‘linmalarning jangovar qudrati va shayligini belgilab beradigan qo‘shinlarning jangovar va safarbarlik tayyorgarligi; qo‘shinlarni zamonaviy harbiy texnika va qurollar bilan ta‘minlanganligi; harbiy xizmatchilar va bo‘linmalarning jangovar va kasbiy tayyorgarligi; harbiy xizmatchilar va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy himoyalanganligi, kabi bir nechta muhim ko‘rsatgichlari ichida axloqiy-ruhiy tayyorgarlik va harbiy xizmatchilarning jangovar ruhi alohida ahamiyat kasb etadi [2].

Harbiy xizmatchining vatanparvarligi, ularda milliy g‘ururning shakllanganligi jangovar ruh va barqaror psixologik tayyorgarlikning asosini tashkil etadi.

Shuning uchun bugungi kunda davlatimizda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini yechish bilan bir qatorda fuqarolarda va ayniqsa yoshlarda vatanparvarlik, o‘z millatining tarixini, qadriyatlarini bilish va undan g‘ururlanish sifatlarini shakllantirishga jiddiy ahamiyat qaratilmoqda.

Chunki yosh harbiy xizmatchilar, fuqaro yoshlarimiz milliy ruh va milliy g‘ururni, muqaddas Vatan taqdiri uchun mas‘uliyatni aynan boy tariximizdan Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Qubro kabi buyuk ajdodlarimiz jasoratidan, o‘z oilasi, mehribon otanasi hamda el-yurtimizning ishonchi, g‘amxo‘rligi va e‘tiboridan oladi.

Milliy g‘urur – shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o‘z-o‘zini anglashi asosida shakllanadigan, ajdodlar qoldirgan ma‘naviy, moddiy merosdan, o‘z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi, o‘zga millatlar oldidagi qadr-qimmatini, obro‘ e‘tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushunchadir [3].

Bu tuyg‘u millatning yutuqlari va obro‘ e‘tibori bilan faxrlanish, uning tashvish va muammolariga befarq bo‘lmaslik kabi shakllarda namoyon bo‘ladi.

Vatanparvarlik tuyg‘usi mustahkam, milliy g‘ururi baland bo‘lgan harbiy xizmatchining jangovar ruhi yuqori bo‘ladi. Chunki u kim uchun va nima uchun xizmat qilayotganligini, vaziyat taqozo etganda qanday qadriyatlarni himoya qilish yo‘lida jon fido etayotganligini to‘liq anglab yetadi.

Jangovar ruh qo‘shinlarning kundalik jangovar-xizmat faoliyatida, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik mashg‘ulotlari vaqtida shakllantiriladi.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik – bu boshqaruv organlari, birlashma, qo‘shilma, muassasa va harbiy qism qo‘mondonligi tomonidan harbiy xizmatchilarning turli vaziyatlar sharoitidagi harbiy jangovar harakatlar davomida yuqori ma‘naviy-axloqiy, axloqiy-ruhiy va harbiy mutaxassislik sifatlarini takomillashtirish maqsadida o‘tkaziladigan tizimli va yagona maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatdir.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning asosiy tashkilotchisi komandir (boshliq) hisoblanadi.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning subyektlari sifatida komandirlar (boshliqlar), shtablar, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar, jangovar tayyorgarlik organlari mansabdor shaxslari va tibbiyot xodimlari e‘tirof etilsa, obyektlari bo‘lib harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a‘zolari, harbiy jamoalar, bo‘linmalar va qo‘shin turlari belgilangan.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning maqsadi - zamonaviy jangovar harakatlar va kundalik tayyorgarlik xususiyatlaridan kelib chiqib, harbiy xizmatchilarda o‘z xizmat majburiyatlarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun zarur bo‘lgan yuqori axloqiy-ruhiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik tadbirlarini sifatli tashkillashtirish va olib borish uchun aniq **shakllari** belgilangan bo‘lib ularga quyidagilar kiradi:

- tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar;
- jangovar tayyorgarlik;
- maxsus tayyorgarlik;
- taktik o‘quvlar;
- sport musobaqalari.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik usullari shartli ravishda ikki turga bo‘linadi: og‘zaki va amaliy.

Og‘zaki – konsultatsiya, amaliy tajribalar misolida so‘zlab berish, suhbat, davra suhbat, uchrashuv, yig‘ilish va boshqa shu kabilar orqali amalga oshiriladi.

Amaliy – maxsus trenajyorlar, imitatorlar, postlardagi mashqlar va mashg‘ulotlar, kompyuter o‘yinlari, maxsus jihozlangan yo‘lakni yengib o‘tish bo‘yicha mashqlar, olovli-hujumkor to‘siqli yo‘l, razvedkachilar yo‘lagi, maxsus sport musobaqalar va mashqlar (qo‘l jangi, bo‘linma tarkibida marsh-brosoklar qilish, uzoq masofaga yurish va h.k.), xotira, diqqat, ziyraklik, zehni o‘tkirlik va fahm-idrok va shu kabi sifatlarni rivojlantiruvchi ruhiy mashqlar, ijtimoiy-psixologik mashqlar, rolli o‘yinlar, avariya holatlari (o‘quv-jangovar vazifalarni bajarish davomida yaratiladi), jangovar vaziyatga yaqinlashtirilgan har xil ruhiy jarohatlanish omillarining harbiy xizmatchiga doimiy ta‘sir etilishi orqali amalga oshiriladi.

Quyidagilar axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning vositalari hisoblanadi:

o‘quv-moddiy bazalari; o‘quv markazlari; dala o‘quv maydonlari; jangovar texnika va qurol-aslahalar; jangovar vaziyatlarga yaqinlashtiruvchi maxsus yaratilgan (vaziyatli psixologik

shaharchalar) vositalar, kompyuter trenajyorlari; jangovar harakatlarning turli elementlarini o'rganishga mo'ljallangan maydonchalar; ruhiy barqarorlikni mustahkamlash va takomillashtirishga mo'ljallangan maxsus barpo yo'laklar va x.k.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni sifatli tashkillashtirish o'quv jarayonlarini jangovar vaziyatlarga yaqinlashtirish; jismoniy va ruhiy yuklamalarni soddalikdan murakkablikka o'tish yo'li bilan mukammallashtirish; o'quv mashg'ulotlarni rejalashtirish va tashkillashtirishda tizimli va ketma-ketlikni ta'minlash; nazariya bilan amaliyotni uyg'unligi; shaxsiy tarkibni tayyorlashda zamonaviy ilm, texnika va texnologiyalardan foydalanish; axloqiy-ruhiy tayyorgarlik jarayonini monitoring qilib borish; mansabdor shaxslarning ish faoliyatida rasmiyatchilikka yo'l qo'ymaslik orqali amalga oshiriladi [4].

Urush va qurolli to'qnashuvlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, alohida harbiy xizmatchidan tortib katta bir harbiy bo'linma (jamo)ning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi, holati, jangovar ruhi qo'shinlarga zamonaviy qurol-aslaha va texnikalar bera olmaydigan ishonch va kuchni bag'ishlaydi. Shunday ekan, *jangovar ruhga – milliy g'urur va yuksak ma'naviy fazilatlarga tayanadigan, harbiy xizmatchilar, bo'linmalar, harbiy qismlar, qo'shilma (birlashma) va Qurolli Kuchlarni harbiy xizmatning qiyinchilik va mashaqqatlariga, axloqiy-ruhiy va jismoniy jihatdan bardoshlilik tayyorligi, g'alabaga doimiy intiluvchanlikni anglatadigan fazilat*, deb ta'rif berishimiz mumkin.

Yuksak vatanparvarlik va milliy g'ururga tayangan jangovar ruh – jangda g'alabaning garovidir!

Yuqorilaridan kelib chiqib xulosa sifatida ta'kidlash joyizki, barqaror axloqiy-ruhiy holat, yuksak ma'naviy va jangovar sifatlar, jangovar ruh tinchlik davrida, qo'shinlarning jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik tizimida shakllantiriladi va mustahkamlanib boriladi.

Bugungi kunda jamiyatimizning, shuningdek, Qurolli Kuchlarimizning qudratini, salohiyatini yoshlar, yosh harbiy xizmatchilar tashkil etishi barchamizga ma'lum. Yangi O'zbekistonning buyuk kelajagini barpo etish, milliy armiyamizni jangovar qudratini mustahkamlash aynan yoshlar qo'lida. Shu sababli, biz kattalar, ofitserlar harbiy xizmatchilarda, yoshlarimizda yuqorida ta'riflab o'tilgan yuksak fazilatlarni tarbiyalashga, buning uchun barcha sharoitlarni yaratishga mas'ulmiz. Bu jarayonga barcha mansabdor shaxslar yuqori javobgarlik va daxldorlik xissi bilan kompleks tarzda yondoshilgan holdagina belgilangan maqsadlarga erisha olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 29 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo'llagan bayram tabrigi// "Xalq so'zi", 2021- yil 14- yanvar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 4- avgust 2018- yildagi PQ-3898- sonli Qarori “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”.

3. Shermatov F.T., Beknazarov A.A. Jangovar stress va uning psixologik oqibatlari. // O‘quv qo‘llanma. 2021. 38-51 bet.

4. Shermatov F.T., Beknazarov A.A., “Ekstremal vaziyatlarda insonda stress holatlarining vujudga kelishi, ularni bartaraf etish yo‘llari va usullari” //Monografia. Hamburg (Germany). Lambert Academic Publishing, 2021.– 42-51 b.

